INLYUZIV TA’LIM O‘QUVCHILARINING ASSISTIV AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHI

Turdimurodova M.M.,
GDPI stajyor - o‘qituvchisi
Appgapp83@gmail.com

Anotatsiya: tezisda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlariga asoslangan holda inklyuziv ta’lim jarayoni sifatini oshirish, alohida ta’limga muhtoj o‘quvchilarning assistiv axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga o‘rgatish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: assistiv texnologilalar,axborot- kommunikatsiya, ergoterapiya, inlyuziv ta’lim

Аннотация: в тезисах рассматриваются вопросы повышения качества процесса инклюзивного образования и обучения обучающихся с особыми образовательными потребностями использованию вспомогательных информационно-коммуникационных технологий, исходя из целей и приоритетов развития системы инклюзивного образования.

Ключевые слова: вспомогательные технологии, информация и коммуникация, трудотерапия, инклюзивное образование.

Annotation: the thesis considers the issues of improving the quality of the inclusive education process, training students with special educational needs to use assistive information and communication technologies, based on the goals and priorities of the development of the inclusive education system.

Keywords: assistive technologies, information and communication, occupational therapy, inclusive education

Alohida yordamga muhtoj bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy hayotga moslashishi, o‘z yo‘lini topishi berilayotgan imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanishi hamda kasb egallashi kerak. Jamiyatning , ta’limning inklyuzivlashuvi har bir alohida ta’limga muhtoj bolalarning zamonaviy bilimlarni egallashlariga zamin yaratadi. <<2020-2025-yillarda Xalq ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi>>da keltirilishicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish; inklyuziv ta’lim dasturlari asosida zamonaviy darsliklar , o‘quv uslubiy qo‘llanmalar axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etgan holda multimedia ilovalarini yaratish; ta’lim muassasalarini inklyuziv ta’limga jalb qilingan o‘quvchilar uchun maxsus jixozlangan kompyuter texnikasi, interaktiv doska, eshitish moslamalari va boshqa ihozlar bilan ta’minlash inklyuziv ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib kelgan. Nogironlarning ta’limga bo‘lgan ehtiyojlari juda xilma-xildir. Jamiyatning barcha boshqa a’zolari singari nogironlar ham o‘zlari yashayotgan jamiyatda hayot sifatini oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari shart . Bilim va ta’lim resurslarini taqsimlash o‘qituvchidan ijodkorlik va zukkolikni talab qiladi. Ta’limda AKTdan foydalanish foydalanuvchiga raqamli ta’lim resurslari uchun muqobil va eng muhimi, foydalanish mumkin bo‘lgan formatni taqdim etgan holda o‘quv muhitini optimallashtirish imkonini beradi. AKTdan foydalanish professional muloqot qilish imkoniyatini beradi, ularning malakasini oshirishga va tajriba almashishga hissa qo‘shadi. AKTdan foydalanish alohida ehtiyojli shaxslarni o‘qitishdagi barcha muammolarni hal qila olmaydi. AKT faqat ma’lumotlarga kirish va aloqalarni qo‘llab-quvvatlashni tubdan yaxshilashni ta’minlaydi kuchli didaktik va muloqot vositasiga aylanish bu o‘z navbatida shaxsiy rivojlanishda sezilarli yutuqlarga zamin

yaratadi, alohida ta’limga muhtoj odamlarning jamiyatda to‘liq ishtirok etishiga imkon beradi[37].

Inlyuziv va maxsus ta’lim tizimidagi ko‘p yillik ilg‘or xorij tajribalari alohida e’tiborga muhtoj bolalarning muvaffaqiyatli reabilitatsiyasida ovoz kuchaytirgich moslamalari bilan bir qatorda assistiv texnologiyalardan foydalanish samarali vosita ekanligini isbotlab kelmoqda. Assistiv texnologiyalar – ta’limda alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan boalarning jarayonga muvaffaqiyatli uyg‘unlashuvlarning zaruriy sharti sanaladi. Mazkur texnologiyalar o‘z tarkibiga bunday bolalarning ta’lim jarayonida axborotlarni qabul qilish, hayotiy shart – sharoitlarga moslashish va ijtimoiy integratsioyasi maqsadida qo‘llanadigan moslamalar, darturiy ta’minot kbilarni qamrab oladi. <<Assistiv texnologiyalar>> ba’zan <<yordamchi texnologiyalar>> , jahon tibbiyot sohasida <<ergoterapiya vosita va uskunalari>> deb ham atalib, axborotga ega bo‘lish, muloqot o‘rnatishni yengillashtirish, muhitga moslasha olish ko‘nikmalarini ta’minlovchi <<imkoniyatlarni ta’minlash texnologiyalari>> atamasi bilan ham bog‘lanadi[38].[3.29].

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanib borishi natijasida eshitish moslamalari ham bir muncha qulaylashtirilgan. Bulardan biri FM tizimi b’lib uning ishlash tartibi quyidagicha: atrofdagi shavqinlarni sezilarsiz darajaga keltirgan holda tovush signallarini eshitish moslamasi yoki koxlear implant dinamikiga bevosita uzatib berish imkonini beradi. Uzatuvchi va qabul qiluvchi qismdan iborat. O‘quvchi OKMni <<induksiya petliya>>sidan qabul qilish tartibiga otkazadi. O‘qituvchining ovozi mikrofondan o‘quvchining FM-qabul qiluvchisiga radiosignalni yetkazuvchisiga, so‘ng <<induksiya petliya>>sidan OKM yoki implantga yetkazib beruvchi FM-uzatmasiga kelib tushdi.Tizim fon shovqinlari va tovush qaytish ta’sirlarini avtomatik tarzda bostiradi. Qo‘shimcha xususiyatlari – zaif eshituvchi bolalar eshitish idrokini rivojlantirish bo‘yicha korreksion mashg‘ulotlarni olib borish vositasi.[3.40].

Eshitish qobiliyatida nuqsoni bor bolalarni o‘qitishda turli taqdimotlarkeng qo‘llaniladi.Slaydda kerakli nutq materiali namoyish etiladi, nutq materialining bir qismi esa eshitish orqali taqdim etiladi. Bunda ma’lumotnoma tugmalari maydoniga og‘zaki nutqni eshitish yoki eshitish- visual idrok etishdan keyintaqdim etiluvchi vazifalar yoki ko‘rsatmalar kiritiladi, bu materialni idrok etishning barcha o‘quvchilar uchun ochiqligini ta’minlaydi. Shunday qilib, o‘qituvchi nutq aloqasini tashkil qilish, o‘quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish imkoniyatni oladi[39].[4.106].

Assistiv axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AAKT) inklyuziv ta’limda o‘quvchilarning imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Ushbu texnologiyalar, masalan, ovozli yordamchilar, maxsus dasturlar va qurilmalar, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini ifoda etishiga, bilim olish jarayonini osonlashtirishga va individual

[37] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.2020

[38] .A. Nazarova, L.R.Xayitov Maxsus ta’limda assistive axborot kommunikatsiya texnologiyalar Toshkent 2024

[39] G.S.Abdullayeva Maxsus va inklyuziv ta’limda AKT Toshkent 2022

ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Maqolada ko‘rsatilishicha, AAKT yordamida o‘quvchilar qiyinchiliklarga qaramay, ta’lim jarayonida faol ishtirok etishlari mumkin. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy integratsiyani, o‘ziga bo‘lgan ishonchni va o‘z-o‘zini anglashni oshiradi. Shuningdek, AAKT ni ta’lim jarayoniga kiritish o‘qituvchilar uchun ham yangi metodologiyalarni qo‘llash imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini yaxshilaydi.

Xulosa qilib aytganda, assistiv texnologiyalar inlyuziv ta’limda muhim rol o‘ynaydi, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo‘shadi va ta’lim tizimini yanada samarali qiladi. Bu texnologiyalar yordamida har bir o‘quvchi o‘z salohiyatini ochishi va ta’lim olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Umumiy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori PQ-4312 08.05.2019

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.2020

3. D.A.Nazarova, L.R.Xayitov Maxsus ta’limda assistive axborot kommunikatsiya texnologiyalar Toshkent 2024

4.G.S.Abdullayeva Maxsus va inklyuziv ta’limda AKT Toshkent 2022